

UDK: 633.11.: 632.1.9.

G'ALLA PARVARISHIDAGI MA'SULIYATLI DAVR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18872661>

q.x.f.f.d. **Bekchanov Zokirjon Botirovich**

b.f.n. **Xudayberganov Muxammedmurod Sabirovich**

Annotatsiya

Ushbu maqolada g'alla ekinlarining kasalliklari, zararkunandalari va begona o'tlarning biologik xarakteristikasi, mamlakatimizda ushbu zararkunanda organizmlarning kasalliklarning, tarqalishi va ularga qarshi ishlatiladigan asosiy kimyoviy vositalar haqida ma'lumotlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar

Cuspensiya, zararli xasva, trips, sariq zang, gerbitsid, o'g'it, fungitsid, insektitsid.

Abstract

This article presents information on the biological characteristics of diseases, pests and weeds of grain crops, the distribution of these pest organisms in our country, and the main chemical agents used against them.

Keywords

Suspension, pest, thrips, yellow rust, herbicide, fertilizer, fungicide, insecticide.

Bugungi kunda ob-havo har qachongidan ham murakkab keldi. Qishning seryog'in, sovuq kelishi hamda past havo harorati fevral oyining oxirigacha cho'zilishi boshqoli don ekinlarini parvarishlash agrotexnika tadbirlarini har qachongidan oshirishni taqozo etmoqda. Ta'kidlash joizki, g'allaning qishki tinim davri yoki qishning davomiyligi qancha uzoq bo'lsa, bahor o'ta tez va tig'iz keladi. Bunday holatlarda g'allaning o'sish va rivojlanish fazalari, ya'ni to'plash, naychalash davri o'ta tez o'tadi.

Kech ekilgan, qishlovga tuplamay kirgan, shuningdek rivoji orqada qolayotgan maydonlarning har bir konturini alohida-alohida nazoratga olgan holda parvarishlash hamda navlarning biologik holatidan kelib chiqib bu maydonlarga qo'shimcha ishlov berishni tezroq amalga oshirish zarur. Shuningdek, mintaqalar tuproq-iqlim sharoitini inobatga olgan holda quyidagi agrotexnik tadbirlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Bu yil qishda havo haroratining 10-15 °C sovuq bo'lganligini inobatga olgan holda g'alla maydonlarini har bir kontur bo'yicha monitoring o'tkazish talab etiladi. Bunda unib chiqmagan, sovuq urgan, siyrak, rivoji orqada qolgan maydonlar aniqlanib, zarur agrotexnik chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Kechki muddatlarda ekilgan, rivojdan orqada qolgan maydonlarni mart oyining birinchi o'n kunligigacha azotli o'g'itlar bilan 100 kg/ga miqdorda qo'shimcha oziqlantirish zarur. Oziqlantirish maydonlarning gektariga 10 tonnadan, holati o'rtacha va erta ekilgan maydonlarga esa gektariga 5 tonnadan mahalliy o'g'it bilan sharbat usulida sug'orish, suv sarfini gektariga 450-500 m³ dan oshirmasdan amalga oshirish tavsiya etiladi. Azotli o'g'itlar bilan birinchi oziqlantirishni 15-martgacha gektariga 150-160 kg dan fizik holda berish va peshma-pesh sug'orishni tashkil etish zarur. Kuz va qishning seryog'in kelishi g'alla maydonlaridagi turli begona o'tlar va kasalliklarning ham yaxshi rivojlanishiga sharoit yaratishini inobatga olib, begona o'tlarning tarqalish darajasi va turlarini aniqlash zarur. Bunda bir yillik va ko'p yillik begona o'tlarning turlariga alohida e'tibor bergan holda gerbitsidlar qo'llaniladi. Aks holda begona o'tlar ozuqa va suvning aksariyat qismini g'allaga nisbatan juda tez o'zlashtiradi.

G'alla ekinlari erta bahorda ma'danli o'g'itli (karbamidli) suspenziya bilan qo'shimcha oziqlantirishga ehtiyoj sezishi, o'tlarning avj olib o'sishi zararkunanda hasharotlar va kasalliklarning g'allazorlarga ayni shu davrda yopirilishini inobatga olib suspenziya insektitsid, fungitsid va gerbitsidlarni qo'shib ishlatish muhim ahamiyatga ega. Bunda kimyoviy preparatlarning qo'llash muddatlari mos kelishi va komponentlarning o'zaro qo'shilishi yuqori darajada bo'lishi shart. Turli pestitsidlarning aralashmasi tayyorlanganda komponentlarning fizik-ximik xususiyatlari o'zgarib, o'simliklarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Buning oldini olish uchun preparatlarni aralashtirishda quyidagi ketma-ketlikka qat'iy rioya qilish zarur: Suvda eruvchi granula – namunali-chi kukun – suvda disperslanuvchi granula – suspenziya konsentrati emulsiya konsentrati suvda eruvchi konsentrat-suvli eritma.

Ko'p yillik va bir yillik begona o'tlarga qarshi, Bazagran 48% s.e.2,0-4,0 l/ga, Granstar Pro,q.o.sus., 750 g/kg 15-20 l/ga, Zarastar Plyus 75% s.d.k 30 g/ga gerbitsidlari tuplanish fazasida qo'llaniladi. Bu gerbitsidlarni massaviy naychalash fazasida qo'llanilsa o'simlik ichida shakllanayotgan boshhoqqa salbiy ta'sir etadi va boshhoqlarda to'liq don hosil bo'lmaydi. Kimyoviy preparatlarni erta tongda yoki kechki salqin havo ochiq harorat 18-25°C atrofida, namlik 65 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Bunda shamolning tezligi sekundiga 3m.dan oshmasligi kerak. G'alla ekinlari tuplanish davrida boshlab har 7 kundan kamida bir marta

maydonda zararkunanda xasharotlar, kassaliklar va begona o'tlarning tarqalish holatini muntazam nazoratdan o'tkazib turish lozim.

G'alla maydonlarida zararli xasva borligi aniqlanganda, har bir daladan 20 tadan namuna har biri 0,25 m, ya'ni 50x50sm olinib, zararkunanda soni hisoblanadi. Qishlovdan chiqqan xasva soni kuzgi g'allada 1m² da 2 tadan yoki yangi avlod lichinkalari soni 1 m da 7-8 tadan oshsa kimyoviy ishlov o'tkazish zarur. G'allazorlarda tripslar borligi aniqlanganda maysaning nay tortish davrida 1 poyaga o'rtacha 8-10 ta trips to'g'ri kelsa, gullash davrida esa har bir boshqda o'rtacha 15-20 tadan ortiq trips to'g'ri kelsa kimyoviy ishlov o'tkazish zarur. G'alla shiralari borligi aniqlangan dalaning 10 joyidan 10 tadan boshq ko'riladi. O'simliklarning 50% dagi boshqalar zararlangan bo'lib, shiralarning 1 ta boshqdagi o'rtacha soni boshqalanish davrida 5-10, don hosil bo'lish davrida esa 20 taga yetganda kimyoviy usulda kurashish tavsiya etiladi.

Shilimshiq qurt paydo bo'lgan dalaning 20 ta joyidan har biri 0,25m (50x50 sm) dan (10 tasi dala cheti bo'ylab, 10 tasi dala markazida diagonali bo'yicha) namuna olinadi. Bir vaqtning o'zida ko'z bilan chamalab barg usti sathining qancha foizi zararlanganligi aniqlanadi. Hisob qilinganda 1m.da 10-15 ta qo'ng'iz topilsa yoki 1 ta poyaga 0,5-1 ta lichinka to'g'ri kelsa yoki barg ustining 10-15% sathi zararlangan bo'lsa, kimyoviy usulda kurash olib borish zarur. Shuningdek g'alla ekinlarining naychalash fazasida zamburug'li un shudring, qo'ng'ir va sariq zang kasalliklarining avj olib rivojlanishi kuzatiladi. Bu kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash uchun g'alla ekinlarining naychalash fazasidan to gullash fazasining oxirigacha har 7 kunda 1 marta dalalarni nazoratdan o'tkazib turish lozim. Buning uchun dalaning ko'ndalang kesmi bo'yicha 10 ta nuqtaning har bittasida qatorasiga 10 ta o'simlik poyasi tekshiriladi. Har bir poyada kasallangan yarus hamma barglarda kasallikning rivojlanish darajalari aniqlanadi. Bu davrda sariq va qo'ng'ir zang kasallilari uchun kasallangan o'simliklar miqdori 10-30, kasalliklarning rivojlanish darajasi 5-10, un shudring va dog'lanish kasalliklari uchun kasallangan o'simliklar miqdori 70, kasalliklarning rivojlanish darajasi 10 foizni tashkil etishi kimyoviy kurash choralari boshlash zarurligidan darak beradi. Bu paytda fungitsidlarni ma'dan o'g'itli (karbamidli) suspenziyaga qo'shib purkash mumkin.

Ma'dan o'g'itli (karbamidli) suspenziyaga hasharotlarga qarshi kurash Bagira 20% em.k. 0,07-0,1 l; Imidaklaprid Ekstra Original,70% s.d.g 0,035; Atila, 5% em.k 0,15-0,2; Dalate 5% em.k. 0,15-0,2 sarf me'yorida qo'llanilayotgan insektitsidlarning birortasini va kasalliklarga qarshi Azilon, 323% sus.k. 1,0 l; Reykon, 28 % sus.k. 0,5l; Oksadon PRO, 30% em.k. 0,2-0,3l; Dufaron 400 YeS, em.k. 0,2 l; Titul miks, 40% k.e.k. 0,2 l; fungitsidlarning birortasini qo'shib purkash ularning o'zaro samaradorligini pasaytirmaydi.

G'alla ekinlari bayroqcha barg chiqargandan boshlab to sut pishish davrigacha ham xuddi yuqoridagi kabi usullar yordamida dalalarda zararkunanda hasharotlar va kasalliklar bor-yo'qligini aniqlash maqsadida nazorat o'tkaziladi. Zararkunanda hasharotlarga qarshi kurash choralarini boshlash g'allaning naychalash fazasidagi ko'rsatkichlarga amal qilgan holda o'tkaziladi. Ammo un shudring, qo'ng'ir va sariq zang kasalliklari bo'yicha esa kasallangan o'simliklar miqdori 80 foizdan oshishi, kasalliklarning rivojlanish darajasi 25 foizni tashkil etishi kimyoviy kurash choralarini boshlash zarurligidan dalolat beradi. Bu davrda ham yuqoridagi kabi insektitsid va fungitsidlarni ma'dan o'g'itli (karbamidli) suspenziyaga qo'shib aralashma holida yoki alohida purkash mumkin. Faqatgina har bir pestitsidning ruxsat etilgan sarf me'yoriga qat'iy amal qilish talab etiladi.

G'alla payhongarchiligiga qarshi qilingan to'siqlarni va sharbat o'ralarini tartibga solish, qo'shimcha go'ng jamg'armasini yil davomida tashkil etish zarur. Yuqoridagi agrotexnologik tadbirlarning o'z vaqtida maromiga yetkazib bajarilishi yuqori hosil olish uchun puxta zamin yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdusaid Sheraliyev "Umumiy va Qishloq xo'jaligi fitopotologiyasi." Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Toshkent-"Talqin"-2008

2. O.B.Isayev, R.Ochilov, Z.A.Po'latov, A. Toshmuratov, N. Sulaymonova Bug'doyni asosiy zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilish.

Mazkur tavsiyanoma O'HQITI ilmiy kengashida muhokama qilinib ma'qullandi (2018 yil 25 dekabrda 18-yig'ilish bayoni)

3. Boshqoli don ekinlarida zararkunanda, kasallik va begona o'tlarga qarshi kurashish bo'yicha tavsiyanoma. 2020 yil g'alla hosili uchun.

4. Musayeva G, Yusupov N. Kuzgi bug'doydagi zang kasalligining don sifatiga ta'siri // Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini. -2018. - №5. - b. 31-32.

5. A.X.Meyliyev, D.M.Oripov. Yumshoq bug'doyda uchraydigan sariq, qo'ng'ir zang va un-shudring kasalliklarini hosildorlikka ta'siri hamda ularga qarshi kurash usullari // Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini. -2020. -№2. -b. 32-33.